

INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARIDA
KRITIK FIKRLASH KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TA‘LIM
PLATFORMALARINING O‘RNI

Zokirova Ma’suma Qahramonjon qizi

Turan International University

Gumanitar fanlar va pedagogika kafedrası o‘qituvchisi

E-mail: masumazokirova5@gmail.com

Tel: +998902222759

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21155804>

Annotatsiya: Ushbu maqolada integrativ yondashuv asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kritik fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda raqamli ta’lim platformalarining o‘rni tahlil qilingan. Raqamli ta’lim muhitining imkoniyatlari, interaktiv vositalar va zamonaviy platformalardan foydalanish orqali o‘quvchilarning tahliliy, mantiqiy va mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, integrativ yondashuv asosida turli fanlararo bog‘liqlikni ta’minlash, muammoli vaziyatlarni hal qilish va axborotni tanqidiy baholash ko‘nikmalarini shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: integrativ yondashuv, kritik fikrlash, boshlang‘ich sinf, raqamli ta’lim platformalari, ko‘nikma, innovatsiya, metod, didaktik imkoniyatlar, tahlil.

Аннотация: В данной статье анализируется роль цифровых образовательных платформ в развитии навыков критического мышления у учащихся начальных классов на основе интегративного подхода. Рассматриваются возможности цифровой образовательной среды, интерактивных инструментов и современных платформ в формировании аналитического, логического и самостоятельного мышления учащихся. Также раскрываются педагогические возможности обеспечения междисциплинарной интеграции, решения проблемных ситуаций и развития навыков критической оценки информации.

Ключевые слова: интегративный подход, критическое мышление, начальные классы, цифровые образовательные платформы, навык, инновация, метод, дидактические возможности, анализ

Abstract: This article examines the role of digital educational platforms in developing critical thinking skills among primary school students based on an integrative approach. The study highlights the opportunities provided by digital learning environments, interactive tools, and modern educational platforms for enhancing students’ analytical, logical, and independent thinking abilities. It also explores the pedagogical potential of interdisciplinary integration, problem-solving activities, and critical evaluation of information within digital learning contexts.

Keywords: integrative approach, critical thinking, primary school, digital educational platforms, skill, innovation, method, didactic possibilities, analysis

KIRISH

Bugungi globallashuv va raqamlashtirish jarayonlari ta’lim tizimi oldiga yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Zamonaviy jamiyatda shaxsdan nafaqat bilimlarni egallash, balki ularni tahlil qilish, taqqoslash, baholash va amaliyotda qo‘llash kabi yuqori darajadagi

fikrlash ko'nikmalariga ega bo'lish talab etiladi. Shu nuqtai nazardan, boshlang'ich ta'lim bosqichidan boshlab o'quvchilarda kritik fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish dolzarb pedagogik muammolardan biri hisoblanadi.

D. Klasterning fikriga ko'ra: [1]: kritik fikrlashni raqamliga asoslangan tafakkur hisoblanadi. Unga ko'ra, kritik fikrlash savol berishdan boshlanib, ishonchli dalillar bilan mustahkamlangan fikrlarga tayanadi va ijtimoiy ko'rinishga ega. Kritik fikrlash jarayonida har bir o'quvchi o'z fikrlarini, baholarini va qarashlarini shakllantiradi. Bu tafakkur mustaqil bo'lib, shaxsiy yondashuvga asoslanadi. Kritik fikrlashning asosiy maqsadi yangi ma'lumotni shunchaki yig'ish emas, balki undan samarali foydalanish qobiliyatini rivojlantirishdir. O'quvchilarda kritik fikrlashni rivojlantirish uchun ularning ta'limga bo'lgan qiziqishini faollashtirish zarur.

AQShlik psixolog D. Xalpernning fikricha: [2]: (“Psixologik kritik tafakkur” qo'llanmasi muallifi) kritik fikrlashni kutilgan natijaga erishish ehtimolini oshiruvchi kognitiv g'oyalar va texnikalar yig'indisidir. Unga ko'ra, kritik fikrlash muammolarni hal qilish, xulosalar chiqarish, ehtimoliy baholar berish va qaror qabul qilish jarayonlarida ishlatiladigan tafakkur turidir. Bu tafakkur maqsadga yo'naltirilgan bo'lib, avtomatik va bir xil tafakkurga zid keladi. Shuningdek, kritik fikrlash jarayonida inson o'z tafakkurini ham baholaydi, ya'ni o'z xulosalarini shakllantirishda qanday omillarni hisobga olganini tahlil qiladi.

Tanqidiy fikrlash o'quvchilarning raqamlini tahlil qilish, baholash, solishtirish va asoslangan xulosa chiqarish qobiliyatini ifodalaydi. Mazkur ko'nikma integrativ yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim jarayonida muhim ahamiyatga ega, chunki fanlararo integratsiya o'quvchilarni turli nuqtai nazardan fikr yuritishga, muammoga kompleks yondashishga undaydi. Bu jarayonda raqamli texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarning bilish faoliyatini yanada faollashtiruvchi muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

Raqamli texnologiyalari ta'lim jarayoniga interaktivlik, vizuallik va mustaqillik elementlarini olib kiradi. Interaktiv platformalar, ta'limiy dasturlar, elektron resurslar va multimediya vositalari orqali o'quvchilarga muammoli vaziyatlar taqdim etiladi, turli manbalardan axborot izlash va ularni tahlil qilish imkoniyati yaratiladi. Bunday sharoitda o'quvchilar faqat tayyor bilimni o'zlashtirish bilan cheklanmay, balki o'z fikrini shakllantirish, asoslash va himoya qilishga o'rganadi.

Fanlararo integratsiya asosida raqamli texnologiyalarini qo'llash o'quvchilarning mantiqiy va tanqidiy fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi. Masalan, ona tili savodxonligi, matematika va informatika fanlarini integratsiyalashgan holda tashkil etilgan raqamli topshiriqlar o'quvchilardan matnni tahlil qilish, masala shartini tushunish, algoritmik fikrlash va natijani baholashni talab etadi. Bu jarayon o'quvchilarning muammoni hal etish ko'nikmalarini shakllantirish bilan birga, ularni mustaqil qaror qabul qilishga undaydi. Shu kabi raqamli platformalarga misol tariqasida quyidagi platformalarni ko'rib chiqish o'rinli:



Stanford Mobile Inquiry-based Learning

Environment (SMILE) - bo'lib, boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilim olish jarayonida turli innovatsion yondashuvni taqdim qiladi.

Ushbu platforma qo'llash, tahlil qilish, baholash ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan: SMILE o'quvchilarni faol o'rganish jarayoniga jalb qiladi va ularni o'z savollarini berishga, ulashishga, javob berishga va baholashga undaydi. Dastur aniq belgilangan vaqt rejimida ishlaydi, bu esa o'qituvchilarga har bir o'quvchining o'rganish yo'lini yaxshiroq tushunishga yordam beradi, bu o'z navbatida kritik fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

SMILEning asosiy maqsadi - o'quvchilarning savol berish qobiliyatini oshirish, darslarda o'quvchi markazli amaliyotlarni rag'batlantirishga qaratilgan.

Ushbu vosita o'quvchilarning egallagan natijalaridagi farqlarni aniqlashga mo'ljallangan. Platformada savolning beshta darajasi aniqlangan:

- Oddiy xotira va oddiy arifmetik hisob-kitobni talab qiluvchi savollar.
- Oddiy tahlil va farqlashni talab qiluvchi savollar.
- O'rta darajadagi tahlil va analizni talab qiluvchi savollar.
 - Chuqur tahlil va mulohazani talab qiluvchi savollar.
- Diqqatni chalg'ituvchi ma'lumotlardan voz kechib, faqat aniq ma'lumotdan xulosa chiqarish.



PhET Interactive Simulations- bu interaktiv simulyatsiyalar portali bo'lib, tabiiy fanlar bo'yicha o'quvchilarga ilmiy tushunchalarni eksperiment orqali o'rgatadi. Ushbu platforma o'quvchilarda tanqidiy fikrlash va tahlil ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan.



Shuningdek, O'zbekiston ta'lim tizimida *Estudy* elektron ta'lim platformasi ham ushbu tizimda uyg'un tarzda kiritilgan. U matematika, tabiatshunoslik, informatika

kabi fanlar bo'yicha o'quv kurslarni hamda egallangan bilimlarni mustahkamlash uchun 300 dan ziyod ongni oshiradigan o'yinli vazifalarni o'z ichiga oladi. Platformadan dars davomida ham, bo'sh vaqtda ham foydalanish mumkin. O'quvchilar uning yordamida o'zlashtirgan materialni mustahkamlash bilan birga, mustaqil ravishda dasturdan ilgarilab ketishlari ham mumkin. Platforma TAS-IX tarmog'ida joylashtirilgan, bu esa undan bepul foydalanish imkonini beradi. O'quv-metodik komplekslar Android, IOS platformalari va “Matematika” va “Alifbo” mobil ilovalari uchun o'zbek va rus tillarida ongni o'stiradigan o'yinlar to'plamiga ega interfaol o'quv dasturini ham o'z ichiga oladi.

Ayniqsa, 1-3 sinflar uchun taqdim etilgan darsliklarning bir qismi, xususan, tasviriy san'at, o'zbek tili va musiqiy savodxonlik bo'yicha kitoblar kengaytirilgan reallik texnologiyalaridan foydalanilgan holda ishlab chiqilgan. Bu o'quvchilarni fanga yanada ko'proq qiziqtirish hamda bugungi o'smirlar hayotida muhim bo'lgan gadjetlarni foydali vositaga aylantirish maqsadida ishlab chiqildi. Kengaytirilgan ilovani 1 marta yuklab olinadi va oflayn rejimida ishlaydi.

Wordwall platformasining afzalliklari

Wordwall boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlariga mos interaktiv topshiriqlar yaratish imkonini beradi.

Masalan, ona tili va o'qish savodxonligi darslarida matn o'qilgandan so'ng quyidagi topshiriqlar beriladi:

- Muallif nima demoqchi bo'lgan?
- Qahramonning xatti-harakatlarini qanday baholaysiz?
- Agar siz uning o'rnida bo'lsangiz nima qilardingiz?

Bunday savollar o'quvchilarning reflektiv va tanqidiy fikrlashini rivojlantiradi.

Moodle platformasining integrativ imkoniyatlari

Moodle platformasi murakkabroq ta'lim jarayonlarini tashkil etish uchun mo'ljallangan.

Ushbu platforma orqali fanlararo loyihalar tashkil etish mumkin.

Masalan, “Suv – hayot manbai” mavzusida:

- tabiatshunoslik fanida suvning xususiyatlari;
- matematika fanida suv sarfi bo'yicha hisob-kitoblar;
- ona tili fanida suvni asrash mavzusida matn yozish;

kabi topshiriqlar integratsiyalashadi.

Natijada o'quvchi bir muammoni turli fanlar nuqtayi nazaridan o'rganadi va chuqurroq tahlil qiladi.

Raqamli platformalar orqali WebQuest texnologiyasidan foydalanish

WebQuest internet manbalari asosida tashkil etiladigan tadqiqot faoliyati hisoblanadi.

O'quvchilarga ma'lum bir muammo beriladi va uni hal qilish uchun turli elektron manbalarni o'rganish topshiriladi.

Masalan, “Nima uchun daraxtlar tabiat uchun muhim?” mavzusida o'quvchilar:

- internetdan ma'lumot qidiradilar;
- ma'lumotlarni taqqoslaydilar;
- eng muhim dalillarni ajratib oladilar;
- taqdimot tayyorlaydilar.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, integrativ yondashuv asosida raqamli texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishning samarali vositasi hisoblanadi. Raqamli ta'lim muhitida tashkil etilgan integratsiyalashgan ta'lim jarayoni o'quvchilarning bilish faolligini oshiradi, mustaqil

fikrlashini rivojlantiradi va ta’lim sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Mazkur yondashuv boshlang‘ich ta’lim amaliyotida keng qo‘llanilishi pedagogik jarayon samaradorligini yanada oshirishga imkon beradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Халперн Д. Психология критического мышления / Халперн Д. – СПб : Питер, 2000. – 512 с
2. Клустер Д. Что такое критическое мышление? / Д. Клустер // Перемена. – 2001. – № 4. – С. 5–13 с
3. B.R Adizov Boshlang‘ich ta’limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari: ped. fan. dok. ... diss. – T.: 2003. – 280 b.
4. Ennis, R. H. (2011). The Nature of Critical Thinking: An Outline of Critical Thinking Dispositions and Abilities. University of Illinois.
5. Paul, R., & Elder, L. (2014). Critical Thinking: Tools for Taking Charge of Your Learning and Your Life. Pearson.
6. Drake, S. M., & Reid, J. (2018). Integrated Curriculum in the Primary Classroom: A Pedagogical Approach. Routledge.
7. Yusupova, M., & Rakhimova, D. (2020). Integrative Approaches in Primary Education. Journal of Pedagogical Innovations, 12(3), 45–56.
8. Khairullina, F. (2019). Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish metodlari. Pedagogika, 2, 28–35.